



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2024
1/5

Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Yunusova X.E. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

Tarix

Abdrimov Z. Ma'muniylar sulolasining kelib chiqishi muammosi	4
Ataxanov R. Farg'ona vodiysi chorvador etnoslarining o'tov tipidagi turar joylari xususida (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	7
Bo'riyev O., Jalilov I. O'zbek mahallasi – milliy-tarixiy institut sifatida	11
Jumaniyazova Sh. Xiva xonligi liboslari nomlanishi tarixiga bir nazar	14
Mo'minova G., Eshtemirov J., O'zbekistonda tarixiy-madaniy meros ob'ektlarini qayta tiklash muammolari (qarshi shahar misolida)	17
Muhammadiyev R., Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga katta miqdorda kontributsiya to'lash sabablari	20
Olimov I. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ekologiya sohasidagi islohotlar va uning dolzarb muammolari (qurg'oqchilik va cho'llanishlarni oldini olishga doir chora-tadbirlar misolida)	24
Elboyeva Sh. O'zbekiston xotin-qizlarining fan taraqqiyotidagi o'rni	27
Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik	
Abduraimova Sh. Comparative analysis of islamic websites in representing tolerance	30
Avazmetova I., Bekchanova M. Maktabgacha ta'limda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning nazariy asoslari	33
Avazxonov Y. Korporativ etika iqtisodiyotda murakkab sinergetik jarayon sifatida	35
Alautdinova K. How to use assessment in education	38
Artikbayeva N., Isayeva I., Nigmatova F. Giorgio Armani uslubining o'ziga xos xususiyatlari	41
Artikov J. The role of interactive educational technologies in improving student skills	45
Axatov L. Mutafakkirlar ilmiy merosi va tasavvuf	48
Ahmedova M. Проблемы обучения языку специальности студентов гуманитарных направлений	51
Ahmedova N. Bo'lajak chet til o'qituvchilarini nutq kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari	54
Batirova F. Роль закаляющих мероприятий и физических упражнений в дошкольном возрасте	57
Baxriddinova D. Bo'lajak chet til o'qituvchilarining kognitiv mobilligini rivojlantirish	59
Bo Tian. The influence of confucius' theories of "Benevolence" and "Propriety" on traditional chinese ethics and morals	62
Babaxo'jaev U. Fizik bakalavr yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlashda fizik masalalarning ahamiyati	65
Boltayeva Sh. Pedagogika nazariyasida o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish muammosining yoritilishi	68
Valiyev L. Sharqda inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning vujudga kelishi va inson qadr-qimmatiga oid tasavvurlarning shakllanishi	71
Valiyeva Z., Tursunova N. Ekologiya va uning inson faoliyatidagi o'rni	74
Gaybullayeva X. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari tarixi va talqini	77
Дадахонова З. Контроль знаний учащихся в историческом аспекте	80
Djumabaeva V. Authentic text and working methods at different stages of education	83
Jumamuratov R. Zamonaviy ta'lim vositalari yordamida o'qitish samaradorligini oshirish	86
Zakirova X. Shahar diskursida shaxslararo munosabatlarning lingvomadaniy xususiyatlari	89
Zafarova M. The benefits of shadowing method in language teaching and learning	92
Ziyoev O. 6-7 yoshli bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish kompetensiyasi	95
Islomov R. O'rta ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o'quv jarayonlariga ta'siri	98
Ismanova O. Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashda fizik eksperiment va laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni	101
Ishanov A. Loyihalash texnologiyasi asosida tay emizuvchilar sinfidan o'rin olgan mavzularini o'qitish metodikasi	104
Karimova G. Лингво-культурологические аспекты английских и узбекских сказок	107
Karimova M. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishishda interfaol metodlardan samarali foydalanish	110
Kasimov A. Социологический анализ механизмов депутатского контроля за исполнением местных бюджетов в Узбекистане (на примере города Ташкента)	113
Qobulniyozova G. Anri Bergson falsafasida ongning intuitiv va intellektual asoslariga oid qarashlar	116
Kuranbayeva H. Talabalarni metodik kompetensiyalarini takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinovdan foydalanish mexanizmi	119
Kuchkeldiyeva U. Talabalar og'zaki muloqot jarayonining didaktik asoslari	122
Qambarova M. Ingliz va o'zbek tillarida arxitektura-qurilish terminlarining taraqqiyoti hamda terminologiya sohasidagi o'rni	125
Qarshiboyev N. M-learning texnologiyalari vositasida ta'lim jarayonini rivojlantirish usullari	128
Qarshiyev N. Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy partiyalar mafkuralari shakllanishi va rivojlanishining umumiyligi hamda o'ziga xos xususiyatlari	131
Qosimova D. Talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolarni tuzatish strategiyalari	135
Mavlonova B. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyasi	138
Madaminova Sh., Bekmetova G., Doschanova M. O'qish darslarida hikoyalarni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv muammosi va kompetentlik tushunchasi	140
Муратов Б. Обучение студентов национальных групп слушанию лекций по специальности на русском языке	143
Muratov D. Ong va ongsizlik falsafasining ijtimoiy ahamiyati	146
Murodova A. Virtual reallik texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari	149
Musayeva A. Talabalarning refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish jihatlari	152
Nasriddinov D. Fizika fani asosida robototexnikani rivojlantirish modeli	155
Nurmonova Z. Xotin-qizlar iqtisodiy faolligi va ijtimoiy institutlarda diskriminatsion me'yorlar: dunyo tajribasi	158
Panjiyeva M. Tabiatshunoslikka oid bilimlarni takomillashtirishda mahalliy materiallardan foydalanish samaradorligi	161
Rayimqulova M. Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalari	164

Raximova S. Siyosiy madaniyatning tarixiy matosini ochish: keng qamrovli sharh	167
Raxmatillaev M. Yuqori malakali gandbolchilarni kuch sifatlarini oshirish	170
Raxmatova M. The value of independent work in learning a foreign language	173
Ruziyeva K. Advanced pedagogical technologies as a tool for developing communicative competence.....	176
Saparov B. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiylashning innovatsion yechimlari va metodlari	179
Sultonov M. Islomiy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi	182
Teshayev D. Oilaviy nizolar yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik omillari	185
Tulishov G'. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlik tuzilmasi, mazmuni va o'ziga xosligi.....	188
Tursunova M. Fantastik adabiyotning badiiy xususiyatlari.....	191
To'xtasinov R. Qimmatbaho toshlardan foydalanishga oid hanafiy faqihlar qarashlari	194
Khalimova N. Four levels that can help evaluate the training: reaction, learning, behaviour, and result	197
Xasanov M. Siyosiy institutlar va jarayonlarni ilmiy tadqiq etishga bo'lgan yondashuvlar	200
Xasanova M. Nemis tilini o'qitishda imitatsiya masalasi: iminatsion va noimitatsion metodlar.....	203
Xolmurodova O. Talabalarda kreativ kompetensiyalarini masala va mashqlar yechish orqali rivojlantirish metodikasi	206
Xorunova S., Azimov F. Tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni qo'llash	209
Hoshimxonov M. So'nggi zamon payg'ambari Muhammad (s.a.v.) va choryor xalifalar mutafakkir Mashrab merosi talqinida	212
Xudoyberganova G. Xristianlikda monaxlar ijtimoiy faoliyatlarining xususiyatlari	215
Xo'janiyozov B. Umum ta'lim maktablarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni	218
Xusanov G'. Oila tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	221
Choriqulov R. Talabalarining mustaqil ta'limini kredit-modul tizimida tashkil etishning mavjud holati	224
Elmurodova I. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takkomillashtirish metodikasi	226
Yuldasheva M. Yolg'izlik hissining differensial tahlili.....	229
Yunusov X. Talaba yoshlarning kasbiy shakllantirishga stsiyentik-professiometrik usullarning tadbig'i	232
Filologiya	
Абдуазизова Д. Функциональный аспект паралингвистических средств.....	235
Авлакулов Я. Произведения Захириддина Мухаммада Бабура – важный источник изучения музыкального искусства эпохи Бабуридов.....	239
Aliqulova D. A. Qodiriy va F.Dyushen ijodida maishiy muammolarning o'ziga xosligi	242
Axmedova A., Zamonaviy tilshunoslikning sohalar terminologiyasida polisemiya hodisasi	245
Babaeva S., Oripova K., An intersection of stylistics and pragmatics. pragmatic aspects of phraseologisms.....	248
Baxodirova Sh. Abdulla Qodiriy kichik asarlaridagi lakunalar	251
Begmatova R. Tilshunoslikda kooperatsiya tamoyiliga doir nazariy qarashlar	254
Dilmurodova N. Asad Dilmurod nasrida tarixiy haqiqat va badiiy talqin	258
Zakirova X., Shahar diskursida shaxslararo munosabatlarning lingvomadaniy xususiyatlari	261
Inog'omjonova R. Teodor drayzerning "Amerika fojiasi" asarida yuzaga kelgan lingvistik transformatsiyalar tahlili	264
Iskandarova D. Structural-semantic features of legal terms in english and uzbek and translation problems	267
Каримова Г. Лингво-культурологические аспекты английских и узбекских сказок	270
Qambarova M. Ingliz va o'zbek tillarida arxitektura-qurilish terminlarining taraqqiyoti hamda terminologiya sohasidagi o'rni	273
Qayumova N. Matn va diskurs, mediamatn va mediadiskurs tushunchalarining nazariy farqlari va tamoyillari	276
Qodirova G. "Zevaxon" dostonida narsa-predmetning nomlarini ifodalovchi leksik birliklar.....	280
Latipova N. Zamonaviy tilshunoslikda kogeziya va kogerentlik: ellipsida struktural-semantik bog'liqliklar tahlili	284
Maxmudova K., Zokirova F., Aminjonova M. Exploring the cultural differences between Uzbekistan and Western States.....	288
Minnikulov I. Verbalization of basic human values in english and uzbek languages	291
Muqimova G. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi fitomorf metaforalarning badiiy-lisoniy xususiyatlari.....	294
Normurodova M. Analysis of linguistic units expressing character in english and uzbek.....	297
Radjabova D. Pirimqul Qodirovning "Humoyun va Akbar" asari inglizcha tarjimasida badiiy psixologizm.....	300
Rakhmatova M. Generalised and particularised conversational implicature in American fiction	303
Ruziyeva K. Advanced pedagogical technologies as a tool for developing communicative competence.....	306
Safarova X. Ingliz tilidagi fransuz o'zlashmalarining fonetik-grammatik xususiyatlari.....	309
Sindarov F. Teologik antroponimlar frazeologik birliklar tarkibiy qismi sifatida (fransuz tili materialida).....	312
Sodikov D. O'zbek milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi ayrim fenomenlar tarjima tahlilida	315
Suvonov Z. Tragik vaziyat yoxud hayot va o'lim chegarasi	318
Tursunova M. Fantastik adabiyotning badiiy xususiyatlari.....	321
Khudayberganov G. From words to worlds: unpacking sociocultural meanings in advertising through linguistic and visual analysis.....	324
Shodieva G. The problem of "Psychological literary criticism" in modern psycholinguistics	327
Shoymardanova Y. Maqol – filologik tadqiqotning obyekt sifatida	330



Xurshida SAFAROVA,
Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

INGLIZ TILIDAGI FRANSUZ O'ZLASHMALARINING FONETIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Zamonaviy ingliz tili etimologik tarkibining yarmidan ko'pini o'zlashma so'zlar tashkil etadi, ular orasida birinchi o'rinni fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar egallaydi. Fransuz tilining ingliz tilining lug'at tarkibiga ta'siri haqiqati bir necha bor qayd etilgan bo'lsa-da, bu ta'sirning tabiati yetarlicha o'rganilmaganligi kuzatildi.

Ingliz tilida ko'p sonli fransuz so'zlarining mavjudligi haqiqati yaxshi ma'lum, ammo ularning ingliz tilida rivojlanishi, assimilyatsiya darajasi va tabiati yetarlicha tadqiqi etilmagan. Ayni paytda, aynan mana shu omil ikki til o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini juda aniq ko'rsatib beradi, shuning uchun fransuz tilidan olingan o'zlashma so'zlarning tabiati va assimilyatsiya darajasi zamonaviy ingliz tili lug'atini o'rganish uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Kalit so'zlar: Etimologik tarkib, lug'at, assimilyatsiya, o'zlashma so'zlar, zamonaviy ingliz tili lug'ati, fonetik, morfologik va leksik qoliplar.

PHONETIC-GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF FRENCH BORROWED WORDS IN ENGLISH

Annotation

Borrowed words make up more than half of the etymological composition of the modern English language, among which the first place is occupied by words borrowed from the French language. Although the influence of French on the vocabulary of English has been noted several times, the nature of this influence has been understudied.

The fact that there are a large number of French words in English is well known, but their development, level of assimilation and nature in English is understudied. At the same time, it is precisely this factor that clearly shows the nature of the relationship between the two languages, so the nature and level of assimilation of French loanwords is of great interest for the study of modern English vocabulary.

Key words: Etymological composition, vocabulary, assimilation, borrowed words, vocabulary of modern English, phonetic, morphological and lexical patterns.

ФОНЕТИКО-ГРАММАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАНЦУЗСКИХ ЗАИМСТВЕННЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Заимствованные слова составляют более половины этимологического состава современного английского языка, среди которых первое место занимают слова, заимствованные из французского языка. Хотя влияние французского языка на словарный запас английского отмечалось неоднократно, природа этого влияния изучена недостаточно.

Тот факт, что в английском языке имеется большое количество французских слов, хорошо известен, но их развитие, уровень усвоения и природа в английском языке изучены недостаточно. В то же время именно этот фактор наглядно показывает характер взаимоотношений двух языков, поэтому характер и уровень ассимиляции французских заимствований представляет большой интерес для изучения современной английской лексики.

Ключевые слова: Этимологический состав, лексика, ассимиляция, заимствованные слова, лексика современного английского языка, фонетические, морфологические и лексические закономерности.

Kirish. Xorijiy so'zlarni o'zlashtirgan til ularni uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz qoldirmaydi. Bu so'zlar asta-sekin o'zining fonetik, morfologik va leksik qoliplariga mos ravishda o'zgartirilib, butun til tizimiga moslashtiriladi, ya'ni assimilyatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu jarayon natijasida o'zlashgan so'zlar o'zining o'zga tillilik xususiyatini yo'qotadi, o'zlashgan tilning lug'at fonida ajralib turishni to'xtatadi va uning tarkibiy qismiga aylanadi.

Asosiy lug'at fondi yangi so'zlarning shakllanishiga asos, tilning leksik-semantik markazi bo'lib, ko'p jihatdan rivojlanish yo'llarini va o'zlashtirish qonuniyatlarini belgilaydi[9]. U o'zlashtirilgan so'zlarning kirib kelishini tartibga soladi va ularning semantik mazmunini belgilaydi, odatda bu so'zlar o'zlashtirilgan va ma'lum bir xalq uchun yangi tushunchalarni ifodalovchi ma'nolarda tilda o'z ifodasini topmagan bo'ladi. Tilga kirib kelgan o'zlashma so'zlar til tizimida allaqachon o'z ifodasini topgan tushunchalarni bildirsada, ular asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar bilan ma'lum sinonimik munosabatlarga kirishadi va kam

qo'llaniladigan sinonimlar pozitsiyasida tildan chekkada qolib ketadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muayyan tilning lug'at tarkibi bilan bog'lanib, o'zlashgan so'zlar asosiy lug'at fondining rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi, ular grammatik tizim bilan birgalikda ularni til rivojlanishining ichki qonuniyatlariga muvofiq o'zgartiradi.

Tilda u yoki bu vaqtda paydo bo'lgan o'zlashma so'zlarning o'zlashtirilishi, ularning til tizimiga kirishi, til me'yorlariga bo'ysunishi va o'zgarishi qonuniyatlari ham tilning ichki qonuniyatlari harakati bilan bog'liq. O'zlashma so'zlarning tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra o'z grammatik tuzilishi, tovush ko'rinishi va semantik mazmuniga ko'ra o'zgarishiga asoslanib, tilshunoslikda so'z o'zlashtirishning uch turini: morfologik, fonetik va leksik assimilyatsiyani belgilaydi. Ushbu uch xil assimilyatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo ularning o'ziga xos xususiyatlari borligi sababli, ularning har birini alohida-alohida qisqacha tavsiflashni maqsadga muvofiq, deb aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Grammatik assimilyatsiya. Ingliz tilidagi fransuzcha so'zlarning assimilyatsiya qilish jarayoni, birinchi navbatda, ularning grammatik tuzilishiga bo'ysunishida namoyon bo'ladi. Davrlar mobaynida rivojlangan grammatik tuzilma tilning, jumladan, uning lug'at tarkibini ham o'zgartiradi. Fransuz tilidan o'zlashma so'zlar ingliz tilida mavjud bo'lgan paytdan boshlab ingliz grammatikasi qoidalariga muvofiq ishlatiladigan faol grammatik kategoriyalarga kiritilgan. Bu so'zlar ingliz tilidagi nutqning ushbu qismiga xos bo'lgan barcha fleksiya shakllarini oladi va bu shakllarni mahalliy ingliz so'zlari modeliga muvofiq shakllantiradi. O'zlashtirilayotganda, jins va sonni ifodalovchi otlardan oldin ishlatiladigan frantsuzcha le, la, les artikllari kabi morfologik bezaklar olib tashlandi. Biz o'zlashma so'zlarda grammatik jins kategoriyasining asta-sekin yo'qolishini kuzatamiz, bu ingliz tilidagi otlarning grammatik jinsi yo'qolishining umumiy tendensiyasi bilan bog'liq[3]. Shuningdek, barcha olingan otlar ingliz tilidagi otlar bilan bir xil tizimga ega. Genitiv birlik va ko'plik (-s (-es) - beornes, hostages, toures, crunes va boshqalarni qo'shish orqali yasaladi.

Ingliz tili me'yorlariga muvofiq sifatlar qiyoslash darajalaridan tashqari barcha grammatik qoidalariga bo'ysunmagan. Ingliz tilida mavjud fe'llar shaxslarga ko'ra tuslanadi (conjugation) va ingliz modeliga ko'ra oddiy va murakkab zamonlarni hosil qiladi. Ko'pchilik o'zlashgan fransuz fe'llari zaif ingliz fe'llari (masalan, to turn, to evoke, to control, to revenge) tarzida preterit va sifatdosh Ining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

O'zagi unli bilan tugagan fransuz fe'llari 1-turning kuchsiz fe'llariga qo'shilgan, masalan, cryien – qichqirmoq, assayin – urinmoq, obeie(n) – itoat etmoq. O'zagi undosh bilan tugagan fe'llar birinchi marta Angliyaning janubiy qismida 2-tur kuchsiz fe'llari namunasiga ko'ra tuslangan, ya'ni hozirgi zamonada i va preteritda d dan oldin unli sinkopatsiyasiga duchor bo'lmagan, masalan, servi(n) -served.

Tahlil va natijalar. Angliyaning shimolida ham, janubida ham 2-turning maxsus shakllari yo'qolganidan so'ng, ular barcha zaif fe'llar qatorida preterit hosil qila boshladilar.

Ingliz tiliga o'zlashgan ko'plab fransuz sifatlarining o'ziga xos xususiyati ularning ko'plik shaklini saqlab qolishidir. Bunday sifatlarni post-pozitiv qo'llanishda tez-tez uchratamiz - letters patents, place delitables, lords spirituels; ammo, tilshunoslikning keyingi rivojlanish jarayonida ular tomonidan ko'plik shakli -s tugatilgan va fransuzcha o'zlashtirilgan sifatlarining postpozitiv qo'llanishi court martial, heir apparent, knight errant kabi muayyan turg'un birikmalarda saqlanib qolgan[2].

O'z so'zlar va bir til doirasidagi murakkab so'zlar ko'pincha o'zlashma so'zlar bilan bog'lanmaydi. Shunday qilib, hosila o'zakli o'zlashgan xorijiy so'zlar bilan, agar bu so'zlar o'zlashtirilgan tilning leksik materiali bilan bog'lanmagan bo'lsa, soddalashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Odatda, ona tilidagi so'zlarni soddalashtirishning asosiy

sababi zamon o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi, so'zlar soddalashtiriladi, ular oddiy holga keladi. Xuddi shu jarayonni fransuz o'zlashmalarida ham kuzatamiz.

Fransuz otlari control, rendez-vous, char-a-bancs, parterre, ingliz tilida tarkibiy qismlarining ma'nosini yo'qotgan, ya'ni soddalashtirilgan va oddiy so'zlar sifatida qabul qilingan. Ba'zi hollarda ular birgalikda yozila boshlaydi, ularda fonetik o'zgarish sodir bo'ladi. Bu, masalan, fransuz tilidan ingliz tiliga contre-roule (lotincha contra rotuladan) shaklida kelgan va "davlat xazinasini saqlash kotibi tomonidan xazinani qayd etmoq" degan ma'noni bildiradi. Mahalliy va xorijiy so'zlardagi soddalashtirishning farqi shundaki, ona tilidagi so'zlarda bu jarayon juda sekin boradi, o'zlashtirilgan so'zlar esa tilga kirishi bilan darhol sodir bo'ladi. Natijada, o'zlashgan so'zlarning morfologik tuzilishi bu xalq tomonidan tan olinadi, o'zak morfemalar haqiqiy ma'noga ega bo'lib, yangi so'zlar yasash qobiliyatiga ega bo'ladi, ingliz affiksleri esa yangi so'zlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, ingliz tilida -ment, -al, -ess, -ance va boshqalarda frantsuzcha kelib chiqishi bir qator qo'shimchalar va prefiksalar paydo bo'ldi.

Fransuzcha so'zlarning katta qismi -ance, -ence qo'shimchasi bilan tuzilgan: ignorance, arrogance, entrance, repentance, innocence va boshqalar. Demak, inglizlar uchun bu qo'shimchaning ma'nosi aniq bo'lib, uning yordamida sifat va fe'l o'zaklaridan mavhum otlar yasaladi. Shunday qilib, yangi "hindrance" so'zining shakllanishiga imkon yaratadi, bunda fransuz qo'shimchasi inglizcha "hinder" fe'lining o'zagiga birlashtirilgan[1]. Xuddi shunday, ingliz tiliga government, treatment, agreement kabi so'zlarning tarkibiga kirgan -ment qo'shimchasi ham inglizlar tomonidan tan olindi va uning yordami bilan ingliz o'zagidan yangi so'zlar hosil bo'ldi: fulfilment, bereavement, amazement, bewilderment.

Jins kategoriyasida jenskiy rod(feminine)ni bildiruvchi otlarni yasashda qo'llaniladigan -ess (aslida kelib chiqishi yunoncha) qo'shimchasi ingliz tiliga princess, countess, baroness so'zlari bilan kirib kelgan. Keyin mahalliy aholi bu qo'shimchani ingliz o'zaklariga qo'shishni boshladilar: shepherdess - cho'pon ayol, goddess - ma'buda, murderess - qotil.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan misollarga asoslanib, shunday xulosa chiqarish mumkin:

- 1) har qanday til alohida olingan til sifatida taraqqiy eta olmaydi;
- 2) ma'lum bir til lug'at boyligi obyektiv va subyektiv omillar asosida kengayib boradi;
- 3) ingliz tilining lug'at tarkibi oshib borishida olinma so'zlar munosib o'rin tutadi;
- 4) ma'lum bir tildan ingliz tiliga kirib kelgan so'zlarning katta qismi yangi tilning imlo va talaffuz qoidalariga to'lig'icha amal qilishi tufayli aksariyat o'zlashma so'zlar fonetik va morfologik yozuv tamoyillarini qabul qiladi, shu sabab ingliz tilida shakliy yozuv tamoyili asosida yoziladigan o'zlashma so'zlar nisbatan kamdir.

ADABIYOTLAR

1. Ильиш Б.А., История английского языка, издание пятое, исправленное и дополненное, издательство «Высшая школа», Москва 1968, стр. 385
2. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка.- М., 1977, стр. 274
3. МакКрам Р. История английского языка. - Нью-Йорк, 1987, с. 256
4. Ngom, F. Linguistic Borrowing as Evidence of the Social history of the Senegalese Speech Community. International Journal of Sociology of Language, 158, 2002. – P.37
5. Darwish, Hosam, M. 2015. "Arabic Loanwords in English Language". IOSR Journal of Humanities and Social Sciences. Vol 20 (7) Ver VII (July 2015) pp105-109.
6. Gak V.G. Essai de grammaire fonctionnelle du français. – M., 1974. – P. 24– 63.
7. Görlach, Manfred. The Linguistic History of English. Houndmills: MacMillan Press LTD, 1997., -602p.
8. Hickey, Raymond. Contact with French: The Two Periods. Studying the History of English. Feb. 2012., -260p.
9. Ngom, F. Linguistic Borrowing as Evidence of the Social history of the Senegalese Speech Community. International Journal of Sociology of Language, 158, 2002. – P.37-51

10. Peters, Robert A. A Linguistic History of English. Boston: Houghton Mifflin Company, 1968.,-265.